

Tashkent shahrida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-mart oylarida, Toshkent shahrida jami 17 308,2 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 108,9 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



| | Hajm, mlrd. so'm | O'sish sur'ati, % |
|----------------------|------------------|-------------------|
| Toshkent sh. | 17 308,2 | 108,9 |
| Bektemir | 441,4 | 100,2 |
| Mirzo Ulug'bek | 1 139,9 | 105,8 |
| Mirobod | 1 653,1 | 113,5 |
| Olmazor | 971,2 | 114,0 |
| Sergeli | 820,2 | 116,5 |
| Uchtepa | 744,7 | 115,7 |
| Chilonzor | 957,3 | 108,1 |
| Shayxontoxur | 1 237,7 | 100,1 |
| Yunusobod | 2 013,9 | 101,4 |
| Yakkasaroy | 2 065,7 | 100,3 |
| Yangi xayot | 581,4 | 101,0 |
| Yashnobod | 1 391,8 | 126,9 |
| Taqsimlanmagan hajim | 3 289,9 | 111,2 |

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2026-yilning yanvar-mart oylarida Toshkent shahrida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 70,6% ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 111,3% ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 11,4% ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 18,1% ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 18,0% ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 116,2% ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar turlari kesimida qurilish ishlari

| | Bino va inshootlar qurilishi | Fuqarolik obyektlari qurilishi | Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari |
|--|------------------------------|--------------------------------|--------------------------------------|
| Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd. so'm | 2 708,2 | 781,4 | 983,7 |
| <i>o'sish sur'ati, %</i> | 111,2 | 32,1 | 134,4 |
| Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd. so'm | 6 968,5 | 1 199,1 | 2 132,5 |
| <i>o'sish sur'ati, %</i> | 108,9 | 18,7 | 109,3 |
| Norasmiy sektor hajmi, mlrd. so'm | 2 534,8 | - | - |
| <i>o'sish sur'ati, %</i> | 100,0 | - | - |

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)


III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 4 473,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,2 % ga kamayib, 25,8 % ni tashkil etdi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 59,5 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 108,9 % ni tashkil etgan holda 10 300,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 14,6 % ni yoki 2 534,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 118,6 % ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxonalar turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

| | Hajm, mlrd. so'm | | | O'sish sur'ati, % da | | |
|-------------------------|------------------|-------------------------|--------------------|----------------------|-------------------------|--------------------|
| | Yirik | Kichik va mikrofirma | Norasmiy sektor | Yirik | Kichik va mikrofirma | Norasmiy sektor |
| Toshkent sh. | 4 473,3 | 10 300,1 | 2 534,8 | 104,0 | 108,9 | 106,6 |
| Bektemir | 77,5 | 341,2 | 22,8 | 68,1 | 123,6 | 141,3 |
| Mirzo Ulug'bek | 137,0 | 856,6 | 146,3 | 92,8 | 106,0 | 121,2 |
| Mirobod | 570,2 | 1 021,6 | 61,3 | 2,8 m. | 93,2 | 99,8 |
| Olmazor | 318,1 | 576,4 | 76,7 | 137,8 | 102,8 | 82,6 |
| Sergeli | 117,7 | 496,6 | 205,9 | 2,6 m. | 95,4 | 112,0 |
| Uchtepa | 63,9 | 381,2 | 299,6 | 65,4 | 92,7 | 98,0 |
| Chilonzor | 267,3 | 616,8 | 73,2 | 125,9 | 99,5 | 96,4 |
| Shayxontoxur | 250,7 | 887,2 | 99,7 | 38,1 | 174,7 | 128,9 |
| Yunusobod | 961,3 | 923,5 | 129,0 | 87,2 | 115,3 | 118,1 |
| Yakkasaroy | 491,2 | 1488,2 | 86,2 | 66,4 | 119,6 | 108,3 |
| Yangiheyot | 77,2 | 443,9 | 60,3 | 113,0 | 106,1 | 125,5 |
| Yashnobod | 375,1 | 895,0 | 121,7 | 2,5 m. | 103,2 | 93,6 |
| Taqsimlanmagan hajim | 766,1 | 10 300,1 | 1152,1 | 145,1 | 103,2 | 104,1 |

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Mirobod tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 2,8 m.), Sergeli mos davriga nisbatan 2,6 m.) va Yashnobod (2025-yilning mos davriga nisbatan 2,5 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Shayxontoxur tumani (174,7 %), Bektemir tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 123,6 %) va Yakkasaroy (119,6 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi Tashkent shahri Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M.Sabirova
71 203-88-18 (3522)

Manzil:

